



Xiva Xonligi Adabiy – Madaniy Muhitida Madrasalarning O‘Rni Va Ahamiyati

Matyakubova Mubarak Madrimovna,

associate professor of the Department of History

Urgench State University

E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

Annotatsiya: Xiva xonligida madrasalar alohida nufuzga ega ilm maskanlari hisoblanib, ular haqida nafaqat mahalliy tarixchilar, balki xonlikka kelgan xorijiy elchilar va sayyohlar ham o‘z kundaliklari ma’lumotlar keltirib o‘tishgan. Madrasalar ilm maskanlari sifatida, xonlik adabiy-madaniy muhitida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada Xiva xonligidagi madrasalar va ularning adabiy madaniy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, madaniy hayot, madrasa, mudarris, xatib, vaqf yerlari, mutavvali, oxund.

Kirish. O‘rta Osiyoda madrasalari ko‘pligi jihatidan Xiva xonligi Buxoro amirligidan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallagan. Bu davrda 130 dan ziyod madrasalar faoliyat olib borgan. Arab Muhammadxon, Sherg‘ozixon, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon soniy madrasalari madrasayi oliya maqomiga ega bo‘lgan. Quyida mashhur madrasalar tarixiga to‘xtalish orqali o‘rganilayotgan davrdagi ilm ma‘rifat borasida to‘la qonli ma‘lumotgan ega bo‘lamiz.

Arab Muhammadxon madrasasi 1616 yilda nigirikdan qurilgan. Madrasa 2 qavatli, 40 hujradan iborat. Yusuf Hoji Do‘iy ko‘p yillar ushbu madrasada oxunlik qilgan. Keyinchalik Bobojon Tarroh shu madrasada mutavalli bo‘lib ishlagan[1, B.286.]. Xonning o‘zi eskirgan madrasalarni ta‘mirlash ishlariga ham g‘amxo‘rlik qilgan. 1616 yilda sinchdan qurilib xaroba ahvolga kelgan Arabxon madrasasini yiqitirib, pishiq g‘ishtdan qayta qurdirdi. Bugungi kunda ushbu madrasada Xiva ichan qal‘a muzey qo‘riqxonasiining fondi joylashgan. Bu fondga Xiva xonligining hujjatlari, vaqf xatlari, qo‘lyozma va toshbosma kitoblar saqlanmoqda.

Sherg‘ozixon madrasasi 1720 yilda Xiva hukmdori Sherg‘ozixon Muhammad Bahodirxon tomonidan qurilgan. Bu madrasa “Maskani fozilon” – Olimlar uyi deb nom oldi. “Maskani fozilon” – Markaziy Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlardan ta‘lim ilinjida kelgan toliblar ilm olishgan[2]. Sherg‘ozixon madrasasida XIX asr oxirida Muhammad Yoqub oxund eshon, Husayin oxund eshon, Muhammad Rafi oxund eshon, Ortiq oxund eshon kabi 45 mudarris olimlar saboq berganlar, kutubxonachi, sartarosh, farrosh va suvchi lavozimidagi kishilar talabalarning xizmatida bo‘lgan[3]. Bu madrasa, asosan, tibbiyotga ixtisoslashgan. Shuningdek, masjid, madrasa o‘qituvchilari, mulla, xatiblar, shariat sudi xodimlari xam tayyorlangan. Madrasada jami 55 hujra mavjud bo‘lib, 100 dan ziyod talaba ilm olgan[4, B.49.]. Madrasa kirish darvozasi hamda peshtoqi yuqorisida marmar toshga nasta‘liq xatida forsiyda bitilgan vaqf xayriyasi haqidagi lavhlar o‘rnatilgan[5, B.307.]. Tarixchi K.Xudoyberganov madrasa peshtoqidagi marmartoshga yozilgan vaqfnomadan quyidagilarni keltiradi: “... vaqfdan kelgan daromadning beshdan birini mutavalli olgan, imom va muazzinga ikki yuz batmon g‘alla berilgan. Farroshiga 150 botmon g‘alla, agar talaba madrasani beuzr ikki oy tark etsa, hujrasi boshqaga olib beriladi. Muallimlardan biri bir hafta ishga kelmasa, imtiyozidan (madarasadagi hujrasidan) mahrum bo‘ladi” [6, B.114.].

Adabiyotlar tahlili. Arxiv hujjatida keltirilishicha, madrasa vaqfdan tushgan daromad madrasa xodimlariga tubandagicha taqsimlangan. Bu madrasaning vaqfidan ungan g‘alla 2050 botmon bug‘doy, 300 botmon sholi, 2350 botmon jo‘xori, jami 4700 botmon g‘alla bo‘ldi. Shu 2050 botmon bug‘doyning panj yaki 410 botmon bug‘doy bo‘ladur. Mazkur panj yaki uch hissa



etganda, har hissasi 136 botmon bo'ladur. Emdi ikki oxundg'a 272 botmon bug'doy berildi. Yana 68 botmondan 136 botmon bug'doy ikki mutavalliga berildi. Emdi 1640 botmon bug'doy qoldi. Shul bug'doyning 90 botmoni muazzinga berildi. Yana imomg'a 90 botmon bug'doy berildi. 85 botmon bug'doy farrosh birla sartaroshga berildi[7].

Sherg'ozixon madrasasi Xurosonga muvaffaqiyatli yurishidan so'ng olib kelingan qullar tomonidan qurilgan. Xon madrasa tugallanishi bilan qullarga ozodlik berishni va'da etgan. Lekin xon madrasa qurilishini jo'rttaga cho'zib yuborgan, bundan g'azablangan qullar Sherg'ozixonni o'ldirganlar. Tarixchilar uning vafot sanasini "dod az g'ulomon" (qullar dastidan dod) deb topganlar. Bu so'zlarni abjad hisobi bilan hisoblaganda harflarning son yig'indisi 1139 ni tashkil qiladi. Bu milodiyda 1726 yilga to'g'ri keladi[8, B.116.].

Qutlug' Murod inoq madrasasi Muhammad Rahimxon I taxtga o'tirgandan keyin xonlikda asta-sekin iqtisodiy yuksalish yuz berdi. Natijada Xorazmdagi qadimgi an'ana-arxitektura sohasi rivojlana boshladi. Albatta bu an'anani xon va uning atrofidagi mansabdorlar boshlashdi. O'sha davrda shaharda madrasalar uncha ko'p bo'lmagan. Arabxon madrasasidan tashqari Xo'jamerdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719-1720), Muhammadamin inoq (1765), Fozilbek (1799), Eshmurodbiy (1810) madrasalari faoliyat ko'rsatgan [9,C.362.]. Muhammad Rahimxon I davrida qurilib, bugungacha saqlangan me'moriy obidalaridan biri Pahlavon Mahmud maqbarasi bo'lsa, ikkinchisi uning akasi Qutlug'murod inoq tomonidan 1806-1811 yillarda qurilgan madrasadir[8, B.29.]. Inoqlar Qo'ng'irotlar urug'ining sardori hisoblanib, katta mavqega ega bo'lishgan. B.Saparboyev tadqiqotlarida ushbu madrasa 1809 yilda barpo qilinib, Qutlimurod inoq nomi bilan atalishini yozadi[10, B.109]. K.Xudoyberganov epigrafik ma'lumotlarga tayangan holda, ya'ni kirish eshigidagi yozuvga ko'ra, uning milodiy 1806 yilda qurilganini yozadi[8, B.29.]. Madrasani barpo qilganda birinchi bo'lib, yer ostida sardoba qurdirgan. Qal'a qamal qilingan taqdirda aholi o'sha manbadan suv bilan ta'minlangan[8, B.29.]. Qutlimurod inoq madrasa ichida o'ziga qabr ham tayyorlab, vafot etganda o'sha joyga dafn qilishni vasiyat qiladi. U 1824 yilda to'satdan kasallikka chalinib vafot etadi va qal'a devorining bir qismini yiqib, Qutlimurod inoqning jasadi shaharga kiritiladi va o'zi vasiyat qilgan joyga dafn qilinadi. «Tavrix ul xavonin» asarida bu haqda shunday ma'lumot keltiriladi: «shavvol oyining to'rtinchi kunida (2 iyun) qum ichidan kelib Qorako'l yonidan chiqqanlar va shaharga keltirilgan Qutlug' Murod inoqning jasadini Xivaq shahrining ichida, o'zi qurdirgan madrasaning maxsus tuzattirgan joyida dafn qildilar. Muddati umri 56 yil erdi»[11, B.412.]. Keyinchalik qal'a devorining yiqilgan joyida Olloqulixon o'z nomida madrasa, karvon saroy va tim qurdiradi[6, B.201.]. Madrasa XVI-XIX asrlar Buxoro me'morchiligi an'alarini eslatadi va bu qurilishda Buxoro ustalari ham qatnashgan bo'lishi mumkin degan xulosani beradi. Madrasa ikki qavatli, pishiq g'ishtdan qurilgan, unda 81 hujra, darsxona, masjid bo'lib, masjidning kirish eshigidagi yozuvdan uning milodiy 1806 yilda qurilgani ma'lum bo'ladi[8, B.29.]. Tarixiy ma'lumotlarda madrasa uchun 24634 tanob yer vaqf qilinganligi borasida so'z yuritilgan. P.P.Ivanov madrasaning 1858 yildagi daromadi 1880 botmon g'allani tashkil qilganini yozadi[12, B.150.].

Uslubiy asoslar: Xivada bunyodkorlik ishlari Olloqulixon davrida ham davom etdi. Ogahiy Olloqulixon tomonidan Toshhovuz shahriga asos solinishi va boshqa bunyodkorlik ishlari xususida shunday deydi: "qo'y yili, sanai 1251/ 1835-1836 da Olloqulixon farmoni bilan Muhammad Yusuf mehtar boshchiligida Toshhovuz qal'asi qurildi. Shu yili "Madrasai oliya" kim, Xiva shahrida karvon saroy bilan Pahlovon darvozasining oralig'ida joylashgan bo'lib, Muhammad Rizo qushbegi boshchiligida qurishga boshlangan edi. U vafot etgandan so'ng, Otamurod qushbegi boshchiligida qurib oxiriga yetkazildi. Ul "Madrasai xon" deb ataladi"



[13]. K.Xudoyberganov Olloqulixon madrasasi peshtoqidagi kitobasidagi yozuvni quyidagicha keltirgan: “Alloh taoloning sharofati bilan bu serfayz makon, xayr va barakalar koni Muhammad Rahim podshohi G‘oziyning (uning qabri nurli bo‘lsan) o‘g‘li hazrati sulton va hurmatli hoqon Abulg‘oziy Alloquli Xorazmshoh (uning davlat mangu davom etsin) 1250, milodiy 1834 yilda qurib bitkazilgan. Madrasa peshtoqi bo‘ylab P shaklida nihoyatda chiroyli va shunisi qiyin o‘qiladigan Qur‘on karimning Fath (g‘alaba) surasi yozilgan” [14, B.170.].

Olloqulixon tomonidan ta‘mirlangan ishlar borasida so‘z ketganda, Ogahiyning ushbu so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “Hamul 1255 / 1839-1840 yil Xivaq shahri ichra Muhammad Amin inoqning yog‘ochdan ishlangan madrasasi vaqt o‘tishi jihatidan ko‘hna bo‘lib, bino asosiga zarar yetib erdi. Ul hazrat vaziri a‘zam Muhammad Yusuf mehtarga buyurib, ko‘hna imoratni yiqdurib yangidan tosh bila qildurdikaim, beg‘oyat xush bino va dilkusho va pursafodurur” [13].

Olloqulixonning saroy tarixchisi Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad Xivaqiy o‘zining “Dili g‘aroyib” asarida: “Xevaqa ko‘p marotaba vayron qilingan va qayta tiklangan. Janobi oliylarining (Olloqulixon) rahmatli otasi va joylari jannatda bo‘lsin Abulg‘oziy Muhammad Rahimxon va uning ukasi Qutlug‘ Murod inoq tomonidan shahar obod qilindi, ularning sa‘yi harakatlari bilan Xivada katta madrasa barpo etildi. Bu ishlarga Sher ismli devonbegi va vazir Muhammad Rizo qo‘shbegi katta hissa qo‘shdi. Jannatmakon Olloqulixon buyrug‘i bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular orasida katta madrasa qurildi” [15, B.20.] deb yozilgan.

Olloqulixon davrida 22 ta madrasa faoliyat olib borgan ma‘lum. Bu haqda G.I. Danilevskiy ham Xivaga kelgan vaqtida shaharda 22 ta madrasa faoliyat ko‘rsatganini yozib o‘tadi [16, C.114.]. Bundan tashqari Marv, Ko‘hna Urganch, Toshhovuz, Hazorasp, Xonqa, Pitnak, Shohobod, Xo‘jayli, Mang‘it, Yangi Urganch shaharlarida ham madrasalar bo‘lib, tolibi ilmlar tahsil olganlar [14, B.65.].

Muhammad Aminxon (1851-1855) Mirzo Olim Maxdum hoji “Tarixi Turkiston” asarida Мухаммад Аминхонни shunday ta‘riflaydi: “Muhammadaminxon Urganj xonlarining zubdasi (sarasi) va ahli baytining umdasi (xalqining tayanchi) edi. Ta‘miri bilod, (shaharlarni ta‘mirlovchi) islohi umuri mulk va husni tadbiri siyosat ila mamlakatni obod ayladi. Bir qancha minoralar, masjidi oliylar va go‘zal madrasalar bino qildi” [17, B.196.]. Mirzo Olim Maxdum hoji tomonidan eslatilgan madrasa 1851-1855-yillarda Ichan-Qal‘aning g‘arbida Ko‘hna Arkning janubida bunyod etilgan. Madrasani qurdirish uchun 1851-yilda tanlov e‘lon qilingan va ustaboshi Abdulla “jin” chizgan loyiha manzur bo‘ladi. Bu madrasa Xivadagi eng katta madrasalardan biri hisoblangan. Madrasaning 130 hujrasi bo‘lib, unda 260 nafar talaba tahsil olgan. Xonlikning oliy shariat qozisining devonxonasi ham shu madrasada joylashgan [18, B.251.]. Madrasa yiliga 12000 Xiva botmoni miqdorida bug‘doy va 5000 tillo pul daromad qilgan [19, C.164.].

Madrasa peshtoqidagi yozuv arab tili, nasta‘liq xatida: «Alloh taoloning inoyati bilan zamon sultoni Abulg‘oziy Muhammad Amin ibn Olloqulixon (uning qabri nurli bo‘lsin) ning amriga binoan ushbu muqaddas madrasa yaxshiliklar maskani bo‘lsin deya bino etildi, sana 1270» (1854 y.)– deb yozilgan. Muhammad Aminxon madrasasi yonida xonning minorasi ham qad ko‘taradi va tarixda “Kalta minor” nomi bilan qoldi. A.Vamberi minora haqida shunday yozadi: «Madaminxon madrasasi karvonsaroy shaklida qurilgan bo‘lib, yonidagi minorasi xonning halokati tufayli bitmay qolgan» [19, P.164.]. Ogahiy madrasaga bag‘ishlab she‘riy tarix yozadi: “Madrasa peshgohiga bir minorai oliy bino qildirdilarkim, sutun yanglig‘ gardun ayvoniga hamsar (falak ayvonining ustunidek), balki kayvon saqafiga baroabar edi (osmon gumbaziga baroabar edi)” [20, B.88.]. Minoraning qurilish tarixi bo‘yicha turli xil ma‘lumotlar keltiriladi. YA‘ni minora qurib bitkazilgan degan ma‘lumotlar va aynan ushbu so‘zlarga qarama - qarshi fikrlar ham mavjud. Ogahiy so‘zlari orqali tarixchi K.Xudoyberganov bu minorani o‘sha



paytlari bitkazilganiga ishora qiladi[6, B.42.].


Me'moriy obidalarining ko'pchiligi Muhammad Rahimxon II Feruz davrida qurildi. Bular xonning o'zining madrasasi (1871 y.), Matmurod va Matniyoz devonbegi (1871 y.), Do'st A'lam (1882 y.), Mozori sharif (1882 y.), Otajonboy (1884 y.), To'ra Murod to'ra (1886 y.), jami 35 madrasa, 10 tasining yonida minora ham qurildi[8, B.38.]. XIX asr oxirida To'ra Murod minorasi (1888 yil), Bikajon bika minorasi (1894 yil), XX asr boshlarida Polvon qori madrasasi (1905 yil), Qozi kalon madrasasi (1905 yil), Polvon darvoza (1906 yil), Islom Xo'ja madrasasi va minorasi (1910-1911 yillar) va boshqa ko'plab me'morchilik obidalarini bevosita Muhammad Rahimxon rahbarligi va homiyligida qurildi[21, B.26.].

Tahlil: Muhammad Rahimxon II madrasa qurilish ishini hijriy 1288-yilning muharram oyida (milodiy 1871-yilning mart-aprel oylarida) saroy mulozimi Muhammad Niyoz devonbegiga topshiradi [22]. Aksariyat adabiyotlarda Sayyid Muhammad Rahimxonning madrasasi 1871-yilda bunyod etilgani qayd etiladi[23, C.40.]. Biroq Ogahiyning ma'lumotiga ko'ra, madrasa binosining qurilishi 1871-yilda boshlanib, 1872-yilda nihoyasiga yetadi[24, B.275.]. Ahamiyatli jihati, madrasa ochilish marosimi o'ziga xos shodiyonaga aylanib, unda shaxsan xonning o'zi ishtirok etib, "hamul madrasa hujralarin tolibi ilm mullolarg'a taqsim qilib berdi" [24, B.275.]. Madrasa kompleksi masjid, darsxona, tahoraxona, ayvon, kutubxona va hujralardan iborat. Keyinchalik madrasa tarkibida yangi me'moriy inshootlar barpo etiladi. Jumladan, uning old tomonida, majmua tarkibida bo'lgan sahnada 18 hujradan iborat yangi me'moriy inshoot qad ko'taradi va madrasada talabalar uchun mo'ljallangan hujralarning umumiy soni 74 taga yetadi[22].

Azaldan dovuq taratgan Xorazm ustalari, me'morlari, naqqoshu rassomlari nafaqat O'rta Osiyo, balki Sharq va Yevropada ham mashhur bo'lgan. Shu sabab Xiva - yetti mo'jizaning biri, muzey shahar deya e'tirof etilgan. Xon ushbu binolar qurilishiga vohaning mashhur ustalari, mohir ganchkorlar usta Xudoybergan hoji, usta Nurmat, yog'och o'ymakorlaridan usta Bobojon, usta Ismoil, usta Otashayx, Mulla Vafo, usta Zayniddin, Odina Muhammad va uning o'g'li usta Ro'zi Muhammad, usta Mulla Muhammad, usta So'fi Muhammad, naqqosh Abdulla jin, yog'och o'ymakori Nodir Muhammad, usta Ro'zmat arbob, naqqosh Abdulla Bolta o'g'li (Xorazm tarixchisi), yog'och o'ymakori Ota Polvon o'g'li va boshqalarni jalb etgan[25, B.23.]. Ogahiy bunyod etilgan binolarning qurilishiga, ba'zi kishilarning vafotiga bag'ishlab o'zbek va tojik tilida o'nlab ta'rixlar bitdi. «Ta'viz ul-oshiqin» devoniga kirgan ta'rixlarning ko'pchiligi Feruz zamonida bo'lib o'tgan voqealar tavsifiga bag'ishlangan: «Ta'rix binoyi havliyi Amir ul-umaro Sayyid Mahmud to'ra», «Ta'rix vafoti qozi Muso eshon», «Ta'rix vafoti qozi Ibrohim eshon», «Ta'rix vafoti Sayyid Muhammadxon», «Ta'rix imorati masjidi Sayyid Ahmad to'ra», «Ta'rix binoyi madrasai Muhammadniyoz devon», «Ta'rix binoyi madrasai amir ul-umaro Sayyid Ahmad to'ra» va boshqalar shular qatoridandir[25, B.23.].

Bayoniy «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida Feruz xon to'g'risida shunday ma'lumotni keltirgan: «Ko'p madrasa va masjidlar bino qildilar va ko'p madrasalarning binolariga sabab bo'ldilar, andog' kim, Muhammadmurod devonbegi bir madrasa bino qildilar va Qadam yasavulboshi bir madrasa bino qildi va Ibroximxo'ja bir madrasa bino qildi va Yusuf yasavulboshi bir madrasa bino qildi va Xusayn Muhammadboy bir madrasa bino qildi va Do'st Olim bir madrasa bino qildi, va al-qoziyu-l- quzzoti qozi Muhammad Salim bir madrasa bino qildi. Va Islomxo'ja bir minorali madrasa bino qildi. Bu binolarning hammalari ul hazratning targ'iblari bilan bo'ldi»[26, B.89.].


Xulosa. Ichan qal'a obidalarini atrofida qurilgan madrasalar hamda Dishan qal'ada xon buyrug'iga ko'ra, bunyod etilgan Yevropa uslubidagi imoratlar ko'hna va qadimiy Xiva shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib kelmoqda. Shu sabab 1967 yil O'rta Osiyoda ilk bor qadimiy Xiva shahri tarixiy-memoriy yodgorliklar qo'riqxonasi «Muzey shahar» deb rasman elon



qilindi»[27, B.134.], BMTning YUNESKO tashkiloti tomonidan tuzilgan va 350 ta me'moriy yodgorliklarni o'z ichiga olgan «Jahon merosi ruyxati»ga O'zbekistonning qadimiy obidalarini bilan bir qatorda Xivaning «Ichon qal'a» kompleksi ham kiritildi»[28, B.63.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. Тошкент: EXTEMUM PRESS, 2011.- Б.286.
2. Ичан Қалъа музей қўриқхонаси фонди. КП. № 3989. -27 -варақ.
3. Ичан-Қалъа давлат музей қўриқхонаси фонди. ГХМЗ КП. – №3989. 27 варақ.
4. Ғойибов М., Жуманиёзов Ш., Абдурахмонов У. Хива тиббиёти (Хива шифохонасига 100 йил). – Тошкент: “Истиқлол нури”– Б. 49.
5. Бабаджанов Б., Раҳимов К., Худойберганов К. Ўзбекистон обидаларидаги дурдона битиклар. Хива. III. Биринчи китоб. – Тошкент: “Uzbekistan today”, 2015. – Б. 299-307.
6. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. Тошкент, 2012. -Б.114.
7. Хива хонлари архиви, 31 дафтар, 7 а варақ.
8. Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019. -Б. 116.
9. История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.) - Т. : Фан, 2012. - С. 362.
10. Сапарбоев Б.Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлиги тарихи (1806-1825йй.) Бухоро, Дурдона нашриёти, 20023. -Б. 109.
11. Худойберганов К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019. -Б. 120.
12. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. -Л. 1940. -С.150.
13. Огаҳий. Риёз уд-давла // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. – № 5364/П., 317 а-319 б варақ.
14. ДавлатёрРаҳим. Оллоқулихон. Урганч, Қувончбек-Машхура, 2018. -Б.170.
15. Содикова Н. Ўғирланган миллий бойликларимиз // Фан ва турмуш. – №9. – Тошкент, 1991. – Б. 20.
16. Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства // Записки Русского географического общества. – Москва: Тип. Министерства внутренних дел, 1851. Книга 5. – С. 124.
17. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009. – Б. 196. Юсупов Ҳ. XIX -XX аср бошларида Хива мадрасалари. Тар.ном.дисс. Урганч, 2024. -Б.79.
18. Садуллаев А., Сотликов А. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдизлари. – Нукус-Урганч: “Қорақалпоғистон”, 2003. – Б. 251.
19. Вамбери Г. Путешествие по Средней Азии. – СПб. : 1865. - С. 164.
20. Огаҳий. Жомъе ул воқеоти султоний. -Т. 1980, Асарлар 6-жилд. -Б.88.
21. Хоразм тарихи. I жилд. (М. Матниёзов таҳрири остида) – Урганч: Хоразм, 1996. – Б. 26.
22. ГХМЗ КП №1304. Муҳаммад Раҳимхон II мадрасасининг вақфномаси. 23.
23. Булатова В. А., Ноткин И. И. Архитектурные памятники Хивы. – Ташкент: Издательство “Узбекистан”, 1972. – С. 18. Гулямов Я. Г. Памятники города Хивы // Труды Узбекстанского филиала АН СССР. Серия I. История и археология. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1941. – С. 40.
24. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол // Нашрга тайёрловчи, сўз боши, изоҳлар муаллифи Н. Шодмонов. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2009. – Б. 275.



-
- 25.Раҳим Д., Матрасулов Ш. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1991.– Б. 23.
- 26.Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 89.
- 27.Абдурасулов А. Хива (тарихий – этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. - Б.134.
- 28.Раҳимов М. ЮНЕСКОнинг ўзбек халқининг маданий ва тарихий меросини тиклашга қўшаётган ҳиссаси // Ўзбекистон тарихи. 2000. – №3. – Б.63.